Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
<i>Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi</i>	
Malakali futbolchilarni tayyorlashning innovatsion pedagogik va texnologik uslublari.....	802
<i>Maxmudov Mamat Raxmatovich</i>	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	807
<i>Adolat Xolmatova Muxammadjonovna</i>	
Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
<i>Alijonova Dilorom Azamjonovna</i>	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	815
<i>Do'stov Dilmurod Karimovich</i>	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS	O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 818 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich
	The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress 821 Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari 826 Otaboyeva Nodira Qodir qizi
	Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati 830 Qobilova Aziza Tursunovna
	Intellektual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari 833 Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich
	Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish 837 Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.
	Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ 840 Суяров Хуршид Бахриддинович
	Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari 844 Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi
	Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari 852 Turapova Ra'no Barat qizi
	Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish 857 Jurayeva Muhayyo Nematillayevna
	Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari 861 Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.
	Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish 865 Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich
	Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari 868 Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna
	The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives) 873 Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli
	Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish 877 Yuldasheva Gulsanam Arken qizi
	Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов 881 Бахриева Шахноза Давроновна
	Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики" 886 Равшанова Иноят Эркиновна
	Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge" 889 Тагаева Тамара Баходировна
	Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi 892 D. S. Zokirova
	O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 895 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich
	Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari 898 Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi
	Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish 901 Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi
	Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari 905 Rustemov Muxamed Biysenbayevich
	The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture 908 Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
Salixova Muhayyo Shakirovna	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
U. M. Utbasarova	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
Алибекова Лайло Рахмановна	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs	935
Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
Raimova Nasiba Abdreimovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
Bahronova Maftuna Farhadovna	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li	



KASBIY LEKSIK KOMPETENSIYA METODIKASI SHAKLLANISHINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI

Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna
Guliston davlat universiteti doktranti

Tilovova Gavhar Abdaxatovna
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'qitish metodikasining rivojlanish bosqichlari, ayniqsa kasbiy leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonining nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqotda "kompetensiya" va "kommunikativ kompetensiya" tushunchalarining ilmiy talqinlari, ularning lingvistik, psixologik va sotsiomadaniy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada til o'qitish metodikasining ilmiy maqomi, uning lingvistik, psixologik va didaktik fanlar bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, grammatik-tarjima va kommunikativ yondashuvlarning tarixiy o'zgarishi hamda zamonaviy til ta'limidagi o'rni tahlil qilingan. Natijada, chet tilini o'qitishda kommunikativ va leksik kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, leksik kompetensiya, til o'qitish metodikasi, kommunikativ yondashuv, metodika tarixi.

Abstract: This article covers the stages of development of foreign language teaching methodology, especially the theoretical foundations and practical directions of the process of forming professional lexical competence. The study analyzes the scientific interpretations of the concepts of "competence" and "communicative competence", their linguistic, psychological and sociocultural aspects. The article substantiates the scientific status of language teaching methodology, its inextricable connection with linguistic, psychological and didactic disciplines. It also analyzes the historical changes of grammatical-translational and communicative approaches and their role in modern language teaching. As a result, the harmonious development of communicative and lexical competences in foreign language teaching is recognized as the main factor increasing the effectiveness of education.

Key words: competence, communicative competence, lexical competence, language teaching methodology, communicative approach, history of methodology.

Аннотация: В статье рассматриваются этапы развития методики обучения иностранным языкам, в частности, теоретические основы и практические направления формирования профессиональной лексической компетенции. Анализируются научные трактовки понятий "компетенция" и "коммуникативная компетенция", их лингвистические, психологические и социокультурные аспекты. Обосновывается научный статус методики обучения иностранным языкам, её неразрывная связь с лингвистическими, психологическими и дидактическими дисциплинами. Анализируется историческое развитие грамматико-переводческого и коммуникативного подходов и их роль в современном обучении иностранным языкам. В результате гармоничное развитие коммуникативной и лексической компетенций в обучении иностранным языкам признаётся основным фактором повышения эффективности образования.

Ключевые слова: компетенция, коммуникативная компетенция, лексическая компетенция, методика обучения иностранным языкам, коммуникативный подход, история методики.

KIRISH

Bugungi kunda tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, xususan kasbiy leksik kompetensiyani shakllantirish metodikasini rivojlantirish jahonda tan olingan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chet tilini o'rgatishning har bir bosqichi – boshlang'ich, o'rta, chuqurlashtirilgan, ilg'or, kasbiy va hatto ona tilida so'zlashuv darajasiga tenglashtirilgan bosqichlarda – asosiy diqqat-e'tibor leksik kompetensiyani shakllantirishga qaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, chet tilida samarali muloqot qilish ko'nikmasini egallash murakkab, ko'p qatlamli va ko'p jihatli jarayon ekanligini anglatadi.

1983-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan ruscha-o'zbekcha lug'atda "компетентность" – "chuqur bilimga egalik", "chuqur bilimga asoslanganlik", "xabardorlik", "omilkorlik" deb o'zbek tiliga

tarjima qilingan. “Компетентный” – yetarli ma’lumotga ega bo’lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, kompetensiyaga ega bo’lgan, vakolatli, masalani ko’rib chiqishga haqli ma’nolarida tarjima qilingan. “Kompetensiya” – biron-bir kishi xabardor bo’lgan soha yoki masala, huquq yoki ixtiyor kabi tushunchalarda berilgan.

G. O. Ochilova va S. Sh. Akbarovalar^[7] fikriga ko’ra: “O’zbek tilining o’ziga xos morfologik va semantik xususiyatlari nuqtai nazaridan yondoshgan holda ‘kompetensiya’ atama va tushunchalari lotinchadagi ‘competere’ – ‘munosib’, ‘competo’ – ‘munosibman’ yoki ‘erishaman’ so’zlariga yaqin ma’noda ishlatilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosiga ko’ra, ‘kompetensiya’ so’zini barcha ma’noviy hollarda qo’llash ko’plab chalkashliklarning oldini oladi”.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilk bor 1960-yillarda amerikalik mashhur tilshunos D. X. Xayms tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo’lib, u bu kompetensiyani ko’p komponentli, murakkab hodisa sifatida tavsiflagan. Ushbu atama o’zining dolzarbligi sababli keyingi yillarda ko’plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot obyektiga aylangan. Ular qatorida I. L. Bim^[3], R. Bell^[1], V. M. Vatyutnev^[13], I. A. Zimnyaya^[16], V. G. Kostomarov^[5], O. D. Mitrofanova^[6], M. Byram^[4], V. L. Skalkin^[11], D. Slobin^[10], N. Xomskiy^[14], A. D. Shveysar^[14] kabi yetuk olimlarni qayd etish mumkin.

Shu boisdan, kommunikativ kompetensiyani chuqur va har tomonlama anglash faqat xorijiy tilni o’qitish nazariyasi bilan bevosita bog’liq sohalardagi ilmiy tadqiqotlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Ayniqsa, kasbiy leksik kompetensiyani shakllantirish metodikasining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilishda kompetensiyaviy yondashuvning umumiy rivojlanish tarixiga murojaat etish nihoyatda muhim hisoblanadi. Chet tillarini o’qitishning zamonaviy metodikasida asosiy nazariy tushunchalardan biri – leksik kompetensiyadir.

Ushbu tushuncha mazmunan ikki asosiy yo’nalishda namoyon bo’ladi:

- *birinchidan*, bu – bo’lajak o’qituvchilarga zamonaviy tilshunoslik va metodik bilimlarni yetkazish jarayoni;
- *ikkinchidan esa*, ushbu bilimlar asosida ular tomonidan zarur bo’lgan malaka va ko’nikmalarni egallash hamda amaliyotda qo’llash jarayonidir.

Ilmiy adabiyotlarda va tadqiqot ishlarida leksik kompetensiya tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud. Har bir olim bu tushunchaning mohiyatini o’z tadqiqot yo’nalishiga asoslangan holda izohlab bergan.

Leksik kompetensiyaga oid zamonaviy yondashuvlarning nazariy poydevori mashhur fransuz tilshunosi Ferdinand de Sossyur tomonidan yaratilgan bo’lib, u birinchi bo’lib “langue” (til tizimi) va “parole” (nutq amaliyoti) atamalarini fanga olib kirgan. Ushbu farqlash orqali u tildagi nazariy va amaliy jihatlar o’rtasidagi munosabatni aniq ko’rsatishga harakat qilgan. Mazkur yondashuvni keyinchalik amerikalik tilshunos Noam Xomskiy rivojlantirib, ilmiy muomalaga “competence” (til qobiliyati, ya’ni shaxsning ideal holatdagi grammatik bilimlari) va “performance” (tilni amalda qo’llay olish, ya’ni nutq faoliyati) tushunchalarini kiritgan.

Noam Xomskiy tilni o’rganish jarayonini inson ongining tug’ma imkoniyatlari bilan bog’lagan va bu yondashuvni til kompetensiyasini tushuntirishda eng to’liq va mukammal model deb baholagan^[14]. Uning nazariyasida til ideal holatda namoyon bo’ladi – barcha kishilar grammatik xatolarsiz so’zlashadi, bir xil tilda fikr yuritadi va har qanday kommunikativ vaziyatda samarali ishtirok etadi. Biroq real hayotda bunday ideal holatlar mavjud emas. Insonlar turli ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va psixologik sharoitlarda yashaydi. Ushbu omillar esa tilni egallash va undan foydalanish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Shu bois, zamonaviy yondashuvlarga ko’ra, leksik kompetensiyani shakllantirishda faqat nazariy bilimlarga emas, balki o’quvchilarning shaxsiy kommunikativ ehtiyojlari, ularning madaniy tajribasi va ijtimoiy konteksti ham muhim rol o’ynaydi.

Shu o’rinda nemis olimi Jon Erpenbek tomonidan ilgari surilgan kompetensiya ta’rifi alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko’ra, bu – murakkab vaziyatga moslashuvchan va o’zini o’zi boshqara oladigan harakatlar bo’lib, ular shaxsiy, o’zgaruvchan va rivoqlanuvchi qobiliyatlar orqali namoyon bo’ladi. Mazkur qobiliyatlar insonning subyektiv dunyoqarashidan kelib chiqadi va uning ichki olami bilan tashqi borliq o’rtasida bog’lovchi ko’prik vazifasini bajaradi.

O’z navbatida, olima A. V. Shchepilova “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini quyidagicha sharhlaydi: “Bu – bilimlar, ko’nikmalar va malakalar majmuasidirki, ular muloqot ishtirokchisiga ma’lumot olish, uni o’zlashtirish, amaliy faoliyat olib borish hamda boshqalar bilan samarali aloqa o’rnatish imkonini beradi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslarini o’rganishda tadqiqot metodologiyasi asosan mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish, ularning mazmunini qiyoslash va konseptual umumlashtirishga tayanadi. Tadqiqot uchun asosiy ma’lumotlar ilmiy maqolalar, metodik qo’llanmalar, tilshunoslik va pedagogika bo’yicha fundamental adabiyotlar, shuningdek, turli davrlardagi metodik yondashuvlarni yorituvchi



manbalardan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tarixiy-komparativ tahlil usuli yordamida o'rganilib, grammatik-tarjima, to'g'ridan-to'g'ri, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarning o'zaro farqlari, afzalliklari va evolyutsiyasi aniqlab borildi. Shuningdek, kontent tahlili metodi orqali terminlarning mazmuniy o'zgarishi, kasbiy leksik kompetensiyaning shakllanishiga ta'sir etgan lingvistik, psixologik va didaktik omillar o'rganildi. Manbalar tahlili davomida ilmiy qarashlarning davriy dinamikasi, metodik g'oyalarning takomillashuvi va zamonaviy talablarga moslashuvi bo'yicha xulosalar chiqarildi. Olingan ilmiy dalillar umumlashtirilib, metodikaning rivojlanishidagi asosiy bosqichlar tizimli ravishda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'kidlash joizki, zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlarda chet tilida kommunikativ kompetensiyaning tuzilishi borasida yagona yondashuv mavjud emas. Ko'plab tadqiqotchilar bu kompetensiyaning quyidagi asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadilar. Zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlarda chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning tuzilishi masalasida yagona fikr mavjud emas. Tadqiqotchilar quyidagi tarkibiy qismlarini ajratadilar:

1. **Lingvistik kompetensiya** – bu til tizimi haqidagi bilimlar majmuasini, xususan fonetika, leksika va grammatika sohalarini o'z ichiga oladi.
2. **Diskursiv (nutqiy) kompetensiya** – bu fikrni mantiqiy, izchil va mavqega mos tarzda ifoda etish, nutqni muayyan kommunikativ holatlarda samarali tashkil qilish qobiliyatini anglatadi.
3. **Sotsiolingvistik kompetensiya** – bu tilni turli ijtimoiy kontekstlarda to'g'ri qo'llash, ya'ni ijtimoiy vaziyatga mos ravishda so'zlashish qoidalarini bilishdir.
4. **Sotsiomadaniy (sotsiokultural) kompetensiya** – o'rganilayotgan til sohibi bo'lgan mamlakatning madaniy va milliy xususiyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishni nazarda tutadi.
5. **Lingvostranaviy kompetensiya** – bu til o'rganilayotgan mamlakat haqidagi madaniyat va realiyalar, ya'ni mamlakatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtalar bo'yicha bilimlarni o'z ichiga oladi.
6. **Ijtimoiy kompetensiya** – bu jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga rioya qilgan holda samarali muloqot olib borish qobiliyatidir.
7. **Kompensatorlik kompetensiyasi** – bu muloqot jarayonida yuzaga keladigan til to'siqlarini turli strategiyalar yordamida yengib o'tish ko'nikmalaridir.

Kommunikativ kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismiga til (lingvistik) kompetensiya kiradi. Kompetensiyani maktab o'quvchilari til tizimi bo'yicha ma'lum bilim va til vositalarini turli til darajalarida (fonem, morfem, leksika, sintaksis) yozish, o'qish, tinglash, gapirish faoliyati orqali boshqarish qobiliyati sifatida tushunamiz. Yevropa umumkompetensiyalari standartlariga ko'ra, til kompetensiyasi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: leksik, grammatik, semantik, fonologik, ortografik va orfoepik kompetensiyalar. Ushbu komponentlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, amaliyotni birgalikda o'zlashtirish afzaldir.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi tilshunoslik diskursiga kirib kelgan paytdan boshlab u doimiy ravishda o'zgarib va o'z konteksti asosida moslashib borgan. Bu jarayon tilga oid atama o'zgarishi bilan birga kechdi. Dastlabki "kommunikativ kompetensiya" atamasi o'rniga, vaqt o'tishi bilan til bilimi, kommunikativ bilim, kommunikativ til qobiliyati, kommunikativ til kompetensiyasi kabi boshqa atamalar taklif etildi va qo'llanila boshlandi. Biroq ularning ta'riflari deyarli bir xil bo'lib, barcha ta'riflarda bilim va undan foydalanish ko'nikmalari qobiliyatlari tushunchasi mavjud edi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, ayniqsa amaliy tilshunoslik sohasidagi olimlar ko'p yillik nazariy va empirik tadqiqotlar asosida bitta xulosaga kelishgan: tilni yaxshi biladigan inson nafaqat til haqidagi bilimga, balki bu bilimdan muloqotda foydalana olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

Til o'rgatish metodikasida kommunikativ yondashuv zamonaviy didaktik qarashlarning shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra, tilni bilim sifatida emas, balki aloqa vositasi sifatida o'rganishga asoslanadi. Kommunikativ metodda asosiy e'tibor nutq faoliyatining to'rt turi – tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirishni real muloqot sharoitida rivojlantirishga qaratiladi. Mazkur yondashuvning shakllanishi va rivojlanishida nafaqat g'arb olimlari, balki sobiq Ittifoq olimlari ham muhim o'rin tutgan.

Sobiq Ittifoq hududida kommunikativ metod g'oyalari shakllanishi mustaqil yo'nalishda kechgan bo'lib, bu borada B. V. Belyaevning ilmiy qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir ^[2]. U o'zining "Методика преподавания иностранных языков в средней школе" (1965) asarida til o'rganish jarayonida muloqotga asoslangan, real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan tilga ustuvor ahamiyat berish zarurligini ta'kidlagan. B. V. Belyaev uchun asosiy maqsad – o'quvchilarda faqat til strukturasi emas, balki mazmunli va maqsadga muvofiq muloqot olib borish malakasini shakllantirish edi. Shunday qilib, u sobiq Ittifoq metodikasi doirasida kommunikativ yondashuvga asos bo'ladigan g'oyalarni birinchi bo'lib taklif qilgan olimlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Demak, kompetensiya atamasi muayyan bir soha bo'yicha olingan bilim va ko'nikmani samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Shu munosabat bilan, chet tilini o'qitish metodikasi xorijiy tilni o'rgatishning maqsad, mazmun, vosita va usullarini, tashkiliy shakllari va didaktik tamoyillarini o'rganuvchi mustaqil pedagogik fan sifatida shakllangan. Bu metodika lingvistik, psixologik, didaktik, shuningdek sotsiomadaniy va kommunikativ omillar uyg'unligi asosida xorijiy tilda samarali muloqot qila oladigan shaxsni tayyorlashga xizmat qiladi. Metodikaning asosiy vazifasi – o'quvchilarda xorijiy til kompetensiyalarini, xususan leksik hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat.

Darhaqiqat, o'qituvchining ijodiy yondashuvi, kasbiga va o'quvchilariga bo'lgan muhabbati katta ahamiyatga ega, chunki bir xil bilimlarga ega bo'lgan o'qituvchilar o'zlarining shaxsiy fazilatlariga ko'ra farq qilishi mumkin. Shu sababli dastlabki qarashda hamma narsa o'qituvchining shaxsiyatiga bog'liqdek tuyuladi. Hatto ayrimlar metodikaga oid nazariy qoidalar o'qituvchilarning ijodini cheklaydi, deb hisoblashgan. Bunday yondashuv, tabiiyki, asossizdir. I. V. Raxmanovning fikriga qo'shilmaslik mumkin emas: "O'qituvchining san'ati – bu umumiy qonuniyatlarni o'qitish va tarbiyaning aniq sharoitlarida hisobga olishdir" ^[8]. Darhaqiqat, hatto eng iste'dodli o'qituvchi ham metodikaning nazariy asoslarini bilmasa, o'z faoliyatida allaqachon fan tomonidan ochilgan haqiqatlarni qayta-qayta "kashf" qilaveradi.

Chet tillarni o'qitish metodikasini lingvistikaga asoslangan amaliy fan sifatida ta'riflashga birinchi urinish E. M. Ryt tomonidan amalga oshirilgan ^[9]. U shunday degan edi: "Chet tillarni o'qitish metodikasi – bu ayniqsa qiyosiy tilshunoslikning umumiy xulosalarini amaliy qo'llashdir". Xuddi shunday yondashuvni akademik L. V. Shcherba ham ilgari surgan bo'lib, u chet tillarni o'qitish metodikasini "til materiali, nutq faoliyati va ularni o'rgatish jarayonini birlashtirgan amaliy fan" sifatida talqin qiladi. U quyidagicha ta'rif beradi: "Chet tillarni o'qitish metodikasi – bu til hodisasi sifatida tilni, faoliyat sifatida nutqni va jarayon sifatida o'qitishni o'z ichiga oluvchi kompleks fan hisoblanadi".

Metodikani lingvistikaga asoslangan amaliy fan sifatida tushunish tasodifiy bo'lmay, ma'lum darajada asosli edi, chunki lingvistika o'qitish va tarbiyani tashkil qilishda asos bo'ladigan til materialini beradi. Ta'lim jarayonida lingvistik qonuniyatlarni hisobga olish zarur. Qiziq tomoni shundaki, bunday ta'rif 1940-yillarda rad etilgan bo'lsa-da, psixolingvistikaning rivojlanishi bilan yana qayta tiklandi, chunki lingvistikaning yangi yo'nalishlari aynan nutq va tilni o'rganish jarayonini chuqurroq tushuntirishga xizmat qila boshladi. Shuning uchun metodika endilikda faqat lingvistik emas, balki psixologik, pedagogik va kommunikativ jihatlarni ham o'z ichiga olgan kompleks fan sifatida qaralmoqda.

Yigirmanchi asr davomida til o'qitish metodikasi sohasida turli yondashuvlar va usullar paydo bo'ldi. Ulardan ba'zilarida turli vaqtlarda keng qabul qilindi va ta'lim sohasida katta o'rin oldi, ammo keyinchalik yangilangan yoki yanada jozibali g'oyalar va nazariyalarga asoslangan usullar natijasida muqobil metodlar bilan almashtirildi.

Jumladan, Grammatik–tarjima metodi XVII asrdan XX asrgacha xorijiy tillarni o'qitishda asosiy yondashuv bo'lib xizmat qilgan bo'lib, u qadimgi lotin va yunon tillari grammatikasini o'rganishga asoslangan. XIX asrda bu metod zamonaviy xorijiy tillarni o'rganishda keng tarqalgan edi. Biroq asr oxiriga kelib, To'g'ridan-to'g'ri (Direkt) metodga bo'lgan qiziqish kuchaya boshladi. Shunga qaramay, ushbu metod hozirgi kunda ham to'liq yo'qolmagan; uni ayrim darsliklar va amaliy mashg'ulotlarda uchratish mumkin.

Grammatik–tabiiy tarjima metodining asosiy tamoyillari:

Bu metod xorijiy til grammatikasini qoida va istisnolarni taqdim etish orqali, shuningdek so'z boyligini ona tiliga tarjima qilingan holda yodlatish orqali o'rgatishga yo'naltirilgan. Tarjima – bu metodda eng muhim mashg'ulot hisoblanadi.

Shunga ko'ra, zamonaviy til ta'limiga qo'yiladigan asosiy talab – bu kommunikativ va leksik kompetensiyalardir. Ular tilni samarali, maqsadga muvofiq va vaziyatga mos ravishda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. D. Xayms kommunikativ faoliyatning to'rtta asosiy tarkibiy qismini ajratib ko'rsatgan: tilga oid ko'nikmalar, madaniy kompetensiya, diskurs va strategik yondashuv. Til o'rganayotgan shaxsning umumiy kommunikativ qobiliyati aynan shu komponentlar asosida shakllanadi.

B. V. Belyaev va boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra, tilni grammatik jihatdan to'g'ri qo'llashning o'zi yetarli emas, uni ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri ishlata bilish ham muhimdir ^[2]. Shu sababli, kommunikativ yondashuv asosida olib boriladigan ta'lim eng samarali hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazmunli muloqotning asosi bo'lgan leksik kompetensiya esa shunda shakllanadiki, odam o'z lug'aviy boyligini kontekstga mos ravishda qo'llay oladi. Kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishi ushbu komponentlarning o'zaro uyg'unligi orqali ta'minlanadi. Ta'lim jarayonining maksimal samaradorligi uchun kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar uyg'un holda qo'llanishi lozim.



Demak, kommunikativ kompetensiya – bu shunchaki tilni bilish emas, balki o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni kutilmagan vaziyatlarda ham samarali qo'llay olish, o'zini boshqara bilish va auditoriya qarshisida ishonch bilan muloqotga kirisha olish qobiliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bell R. T. Vvedenie v prikladnyuyu lingvistiku: podkhody i metody obucheniya yazykam / per. s angl. – M.: Vysshaya shkola, 1981. – S. 254.
2. Belyaev B. V. Metodika prepodavaniya inostrannykh yazykov v sredney shkole. – M.: Prosveshchenie, 1965. – S. 303.
3. Bim I. L. Teoriya i praktika obucheniya inostrannym yazykam: didaktika i metodika. – M.: Russkiy yazyk, 1997. – S. 232.
4. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – S. 124.
5. Kostomarov V. G. Yazyk i kul'tura: ocherki po sotsiolingvistike. – M.: Nauka, 1995. – S. 304.
6. Mitrofanova O. D. Formirovanie rechevoy kompetentsii uchashchikhsya na urokakh inostrannogo yazyka. – M.: Prosveshchenie, 1986. – S. 143.
7. Ochilova G. O., Akbarova S. Sh. Kasbiy kompetentlik. – T.: 2022. – B. 11–12.
8. Raxmanov I. V. Pedagogika – tarbiya san'ati. – T.: O'qituvchi, 1980. – B. 25.
9. Ryt E. M. Metodika prepodavaniya inostrannykh yazykov kak nauka. – M.: Uchpedgiz, 1958. – S. 56.
10. Slobin D. Psycholinguistics. – Glenview, IL: Scott, Foresman and Co., 1974. – S. 288.
11. Skalkin V. L. Metodika obucheniya ustnoy rechi na inostrannom yazyke. – M.: Prosveshchenie, 1981. – S. 128.
12. Shveytsar A. D. Vvedenie v teoriyu perevoda. – M.: Vysshaya shkola, 1988. – S. 254.
13. Vatiutnev V. M. Yazyk i obshchestvennoe soznanie: filosofskiy i metodologicheskiy analiz. – M.: Mysl', 1980. – S. 215.
14. Xomskiy N. Aspekty teorii sintaksisa / per. s angl. – M.: Progress, 1972. – S. 314.
15. Werner G. Faix. Kompetenz. Festschrift Prof. Dr. John Erpenbeck zum 70. Geburtstag. Band 4. Steinbeis-edition, 2012. 1. Auflage 2012, Steinbeis-edition Stuttgart. – S. 10.
16. Zimnyaya I. A. Psikhologicheskie aspekty obucheniya govoreniyu na inostrannom yazyke. – M.: Prosveshchenie, 1978. – S. 160.
17. Shchepilova A. V. Kommunikativno-kognitivnyy podkhod k obucheniyu frantsuzskomu yazyku kak vtoromu inostrannomu: teoreticheskie osnovy: avtoref. dis. ... d-ra ped. nauk. – M.: 2013. – S. 56.
18. Shcherba L. V. Rus tili metodikasi va umumiy tilshunoslik bo'yicha tanlangan asarlar. – M.: Prosveshchenie, 1974. – B. 120.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.